



FORMS OF THE MANIFESTATION OF RELIGIOUS AND SECULAR TRENDS IN THE MIDDLE EAST COUNTRIES

Dildora Dilshatovna Yusupova

Doctor of Philosophical Sciences (DSc)

Associate Professor

Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan

Email: yu.dildorahon@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Middle East, religiosity, secularism, Islamic factor, socio-political instability, “Arab Spring”, globalization, extremism, terrorism, religion and state.

Received: 19.10.25

Accepted: 20.10.25

Published: 21.10.25

Abstract: This article analyzes the complex relationship between religion and secularism in Middle Eastern countries and their influence on regional socio-political processes. The dynamics of religious and secular trends in the region are examined through the lens of globalization, extremism, the role of religious ideologies in the political arena, and the aftermath of the “Arab Spring”. Based on data from the “Arab Barometer”, a statistical analysis of changes in religiosity levels among youth and the general public is conducted. The article also highlights the negative consequences of existing forms of state structure in the Middle East: secular states, religious regimes, as well as entities such as the “Islamic State” proclaimed by radical groups.

YAQIN SHARQ MAMLAKATLARIDA DINIYLIK VA DUNYOVIYLIK TENDENSIYALARINING NAMOYON BO‘LISH SHAKLLARI

Dildora Dilshatovna Yusupova

Falsafa fanlari doktori (DSc)

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti dotsent

Email: yu.dildorahon@gmail.com

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Yaqin Sharq, diniylik, dunyoviylik, sekulyarizm, islom omili, Sharq

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yaqin mamlakatlaridagi diniylik va

ijtimoiy-siyosiy beqarorlik, “Arab bahori”, globalashuv, ekstremizm, terrorizm, din va davlat.

dunyoviylik oʻrtasidagi murakkab munosabatlar, ularning mintaqaviy ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga taʼsiri tahlil qilingan. Mintaqada globalashuv, ekstremizm, diniy mafkuralarning siyosiy maydondagi oʻrni va “Arab bahori”dan keyingi vaziyatlar misolida diniy va dunyoviy tendensiyalarning oʻzgarish dinamikasi oʻrganilgan. “Arab Barometri” maʼlumotlari asosida yoshlarda va keng jamoatchilikda dindorlik darajasining oʻzgarishi statistik jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada Yaqin Sharqda mavjud boʻlgan dunyoviy davlatlar, diniy boshqaruvdagi tuzumlar hamda radikal guruhlar tomonidan eʼlon qilingan “Islom davlati” kabi shakllarning salbiy oqibatlari koʻrsatib berilgan.

ФОРМЫ ПРОЯВЛЕНИЯ РЕЛИГИОЗНЫХ И СЕКУЛЯРНЫХ ТЕНДЕНЦИЙ В СТРАНАХ БЛИЖНЕГО ВОСТОКА

Дилдора Дилишатовна Юсупова
Доктор философских наук (DSc)
Доцент Национального университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Email: yu.dildorahon@gmail.com
Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Ближний Восток, религиозность, светскость, секуляризм, исламский фактор, социально-политическая нестабильность, “Арабская весна”, глобализация, экстремизм, терроризм, религия и государство.

Аннотация: В данной статье анализируются сложные взаимоотношения между религией и секуляризмом в странах Ближнего Востока, а также их влияние на региональные социально-политические процессы. Исследована динамика изменения религиозных и светских тенденций в регионе на примерах глобализации, экстремизма, роли религиозных идеологий на политической арене и ситуаций после “Арабской весны”. На основе данных “Арабского барометра” проведен статистический анализ изменения уровня религиозности среди молодежи и широкой общественности. В статье также освещены негативные последствия существующих на Ближнем Востоке форм государственного устройства: светских государств, религиозных режимов, а также таких образований, как “Исламское государство”, провозглашенное радикальными группировками.

Kirish. Yaqin Sharq geosiyosiy jarayonlarning markazida turadi. Ushbu hududda yuzaga kelayotgan ijtimoiy-siyosiy muammolar, qurolli nizolar, diniy ekstremizm, terrorizm va ideologik qarama-qarshiliklar nafaqat mintaqaviy, balki butunjahon xavfsizligi va barqarorligiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Bu jarayonlar zahirida ko'plab tarixiy, siyosiy, iqtisodiy hamda mafkuraviy omillar mujassam bo'lib, ayniqsa panislomizm g'oyalarining destruktiv ta'siri ushbu muammolarning chuqurlashishida muhim rol o'ynaydi. Shu bois, Yaqin Sharq mamlakatlaridagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta'sir qiluvchi diniylik va dunyoviylik masalalarini ham chuqur tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mazkur mavzuni o'rganishda F.E.Karimov, I.S. Mavlyautdinov, X.Oztyurk, A.Begmatov, A.Qodirov, M.Dadaboyevalarning tadqiqot ishlari, xususan ilmiy izlanishlari tarix falsafasi nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Shu bilan birga, mavzuni yoritishda qiyosiy tahlil, analiz, tizimlilik, komparativistik tahlil kabi metodlardan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Yaqin Sharq mamlakatlarida diniylik va dunyoviylik tartibi o'rnatilgan mamlakatlarni tahlil qiladigan bo'lsak, Misr Respublikasi dunyoviy davlatlikni tanlasda dinning ahamiyati va ta'siri hali hamon saqlangan.

“Umuman olganda, Yaqin Sharq mintaqasidagi 17 ta davlat rasmiy davlat diniga ega bo'lishi, qolganlarini islom dinini qo'llab-quvvatlab kelishi mintaqada davlatlarida din va siyosat o'ta kuchli darajada bir-biri bilan qo'shib ketganligini ko'rsatadi. Shuning uchun ham bugungi kunda etnik munosabatlardagi ziddiyat va nizolarning katta qismi ushbu mintaqada davlatlari xissasiga to'g'ri keladi va xavfsizlikni ta'minlashda o'ziga xos murakkabliklar tug'diradi. Boz ustiga mintaqada xavfsizlikni ta'minlovchi institutsional baza mavjud emas” [1, – B. 35-36.] – deydi Farxod Karimov.

“Islom olami deganda nafaqat islom dini keng tarqalgan mamlakatlar jamoasi, balki mahalliyashtirilmagan, millatlararo ijtimoiy-madaniy va diniy-siyosiy hodisa sifatida ham tushunish kerak. Bu dunyo madaniyati, mentaliteti, milliy va mintaqaviy urf-odatlaridagi barcha farqlarga qaramay, yagona tarixiy-ma'naviy jamoaga mansubligini angelaydigan insonlarni birlashtiradi. Ummat nafaqat musulmonlarning mahalliy hamjamiyati, balki dunyo miqyosidagi hamjamiyat, hayot tarzi islom, uning qadriyatlari, me'yorlari va qarashlari bilan singib ketgan yuz millionlab odamlardir” [2, – C. 7.].

“Islom nihoyatda oqilona ta'limot bo'lib, islom olamiga kirib borgan globallashtiruvchi eskirgan siyosiy tizimlarning tanazzulini kuchaytirmoqda. Islom zamonaviy musulmon davlatlarining shaxsiy yoki milliy o'ziga xosligidan farqli ravishda jamoaviy o'zlikni amalga oshiradi” [2, – C. 8.].

Darhaqiqat, tarix falsafasi nuqtai nazaridan, yuqoridagi fikr islomning qadimdan insoniyatning ma'naviy va madaniy taraqqiyotidagi rolga ishora qiladi. Islom nafaqat diniy nizom, balki ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy tizim sifatida ham o'zining tizimli yechimlarini taklif qilib kelgan. Falsafiy jihatdan bu uning universallikka intilishini va ma'lum vaqt davomida turli madaniyatlar bilan integratsiya qilish qobiliyatini aks ettiradi. Chunonchi, globallashuv zohiriy ravishda islom jamiyatining qadriyatlariga xavf tug'dirsa-da, bu jarayon ichki qarama-qarshiliklarni yuzaga keltirib, ularni hal qilish uchun ham sharoit yaratadi. Bu, masalan, XIX-XX asrlardagi islom islohotchilari harakatlarini eslatadi. Ular global ta'sirga javoban dinning asosiy qadriyatlarini modernizatsiya qilib, uni zamonaviy voqelikka moslashtirishga intilishgan.

Globallashuv va islom o'rtasidagi o'zaro ta'sir haqida to'xtaladigan bo'lsak, bu qarash bir qarashda ziddiyatli bo'lib ko'rinsa-da, chuqurroq tahlil qilinganda, bu jarayon islom jamiyatining ichki qarama-qarshiliklarini hal qilishga yordam beradi. Shu tariqa, islomning ijtimoiy-falsafiy mohiyati nafaqat saqlanib qoladi, balki yanada boyitiladi. Shuningdek, bunday qarama-qarshiliklar sintezlanib, diniylik va dunyoviylik o'rtasida muvozanatni topishga ham imkon beradi. Zero, diniylik va dunyoviylik o'rtasida muvozanat bo'lmasa yoki buzilsa, mamlakatlar ijtimoiy-siyosiy hayotiga tahdid tug'diruvchi desekulyar jarayonlar paydo bo'ladi. Buni biz Yaqin Sharqda sodir bo'lgan "Arab bahori" voqealarida ko'rishimiz mumkin.

Yaqin Sharq mamlakatlarida islom to'liqini, ya'ni kulminatsion holati 2011-yilda "Arab bahori"dan so'ng yaqqol namoyon bo'ldi. Aynan o'sha vaqtdan boshlab Yaqin Sharq mamlakatlarida islomiy partiyalarning roli siyosiy maydonlarda sezilarli darajada oshdi.

Musulmon dunyosida diniylik va dunyoviylik o'rtasidagi muvozanatning to'g'ri yo'naltirilmaganligi Yaqin Sharq mamlakatlarida 2012-2019 yillarda dindorlikning pasayishiga olib kelgan bo'lsa, 2021-2022 yillarda esa, aksincha dindorlik o'sganligini ko'rsatdi. Arab mamlakatlari bo'yicha sotsiologik tahlillarni olib boruvchi "Arab Barometri" (Arab Barometer) tashkilotining bergan ishonchli ma'lumotlariga ko'ra bizda dunyoviylikning arab aholisiga ta'siri darajasini ko'rib chiqish imkoni paydo bo'ladi. "Arab Barometri" tashkilotining bergan ma'lumotida 2012-2013 yillarda uchinchi to'liqin, 2018-2019 yillarda beshinchi to'liqin va 2021-2022 yillarda yettinchi to'liqlarni o'zaro qiyosiy tahlil qilishimiz mumkin bo'ladi. Xususan quyidagi jadvalda Yaqin Sharq mamlakatlari aholisining "diniy emasman" deb hisoblaydigan fuqarolarining ulushi foiz miqdorida ko'rsatilgan [3](Qarang: 1-jadval).

1-jadval

№	Davlatlar nomi	2012-2013	2018-2019	2021-2022
1.	Tunis	16 %	31 %	27 %
2.	Liviya	11 %	25 %	24 %
3.	Livan	13 %	14 %	19 %
4.	Jazoir	8 %	15 %	10 %

5.	Marokash	3 %	13 %	7 %
6.	Iroq	5 %	6 %	8 %
7.	Sudan	5 %	9 %	6 %
8.	Misr	2 %	10 %	4 %
9.	Falastin	7 %	8 %	4 %
10.	Iordaniya	5 %	6 %	3 %

1-jadval. Aholi orasida o'zini "diniy emasman" deb hisoblaydiganlar ulushi

Yuqoridagi jadvalga ko'ra, Tunis, Liviya va Livan mamlakatlarida 2012-yildan 2022-yilgacha bo'lgan jarayon dunyoviylashish tendensiyasi oshib borganligini ko'rsatmoqda. Jazoir, Marokash, Sudan, Misr, Iordaniya va Falastinda esa, aksincha 2022-yilga kelib aholida diniylashish kuzatiladi. Iroqda esa, dunyoviylashish juda oz miqdorda ekanligi namoyon bo'ladi.

Quyidagi 2-rasmdagi ma'lumotga ko'ra esa, 18 yoshdan 29 yoshgacha bo'lganlar orasidagi diniylashish yoki dunyoviylashish jarayonini kuzatishimiz mumkin. Xususan, 2012-2019 yillar mobaynida dunyoviylashish yuqori bo'lgan bo'lsa, aksincha 2021-2022 yillarda dindorlik darajasi yuqorilab borganligining guvohi bo'lamiz [3](Qarang: 2-jadval).

2- jadval

№	Davlatlar nomi	2012-2013	2018-2019	2021-2022
1.	Tunis	24 %	46 %	30 %
2.	Liviya	18 %	36 %	30 %
3.	Livan	14 %	18 %	30 %
4.	Jazoir	13 %	24 %	17 %
5.	Marokash	4 %	22 %	10 %
6.	Iroq	8 %	9 %	10 %
7.	Sudan	8 %	10 %	7 %
8.	Misr	2 %	18 %	6 %
9.	Iordaniya	8 %	13 %	6 %
10.	Falastin	8 %	11 %	6 %

2- jadval. 18 yoshdan 29 yoshgacha bo'lganlar orasidagi o'zini "diniy emasman" deb hisoblaydiganlar ulushi

Yuqoridagi tahlillarni umumlashtiradigan bo'lsak, Yaqin Sharq mamlakatlaridagi arab dunyosida dunyoviylik va diniylik tendensiyalari vaqti vaqti bilan o'zgarib turgan hamda birining hukmronligi vaqtida ikkinchisi ham o'z mavjudligini saqlab qolavergan.

Yaqin Sharq mamlakatlaridagi diniylashish yoki dunyoviylashish holatini yillar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, 2006-yildan 2011-yilga qadar, ya'ni "Arab bahori" bo'lgunga qadar dunyoviylashish tendensiyasi yuqori bo'lganligini ko'rsak, aksincha "Arab bahori"dan so'ng vaziyatlar keskin o'zgarib ketganligini hamda nafaqat, diniylashish jarayoni, balki din niqobi ostidagi ekstremistik va terroristik tashkilotlarning ham urchib ketganligini guvohi bo'lamiz. Ayniqsa, ushbu holatlar Yaqin Sharqda uch xil ko'rinishni paydo qilganligini ko'ramiz. Xususan:

birinchidan, dunyoviy davlatlarning mavjudligi;

ikkinchidan, diniy davlatning mavjudligi;

“Yaqin Sharqdagi musulmonlarning ijtimoiy hayoti bir asrdan ko‘proq vaqt davomida o‘z jamiyatlarini butunlay dunyoviyalashtirishni (sekulyarizatsiyani) xohlaydigan ozchiliklar va ko‘plab zamonaviy g‘oyalar va fuqarolik institutlariga qarshi bo‘lgan islom an‘anachilari yoki fundamentalistlari o‘rtasidagi raqobat maydoni bo‘lib kelgan. Ayni paytda, oddiy odamlarning aksariyati kundalik hayotlarida asosiy huquqlar va yaxshiroq moddiy hayotga bo‘lgan zamonaviy intilishlarini diniy an‘analari bilan birlashtirishga harakat qilishdi” [4] – deydi Yaqin Sharq tadqiqotlari bo‘yicha shug‘ullangan olim Asef Bayat.

Darhaqiqat, Yaqin Sharq mamlakatlarida diniylik va dunyoviylik muvozanatiga ta’sir ko‘rsatuvchi din omili bugun to‘g‘ridan to‘g‘ri ijtimoiy-siyosiy masalalarga qaytganini ko‘rsatmoqda. Bir tarafdin Yaqin Sharqda dindin siyosiy maqsadlar yo‘lida foydalanayotgan din niqobi ostidagi guruhlar urchib ketayotgan bo‘lsa, ikkinchi tarafdin esa, islomning tinchlik, bag‘rikenglik kabi shiorlaridan foylangan holda islom ma’rifatini dunyoga taratishga urinayotgan xalqaro islomiy tashkilotlar ham faoliyat olib bormoqdalar. Birinchi guruhga mansub tashkilotlar sakral davlat tarafdori bo‘lsalar, ikkinchi guruh tarafdorlari esa, sekulyar davlatda ham dinni saqlab qolgan holda bashqariladigan zamonaviylikni targ‘ib qilmoqdalar. Mana shu ikki tendensiya Yaqin Sharq mamlakatlarida to‘lqin sifatida ko‘tarilib, pasayib borishi mintaqada turli vaziyatlarni paydo qilmoqda.

Bizning fikrimizcha, Yaqin Sharq mamlakatlari diniylik va dunyoviylik o‘rtasidagi muvozanatni saqlab qolishning yangi mexanizmlarini ishlab chiqsalargina mintaqadagi har qanday vaziyat o‘z muvozanatini saqlab tura oladi. Bunda asosan, davlat va din masalalariga katta e’tibor berish, shuningdek, din va siyosat masalalarida o‘zaro hamkorlikni to‘g‘ri yo‘lga qo‘ya olishlari lozim. Buning uchun davlat va dinning maqsadi bir bo‘lishi hamda davlat dindin xavotirga tushmasligi kerak bo‘ladi. Dindin qo‘rqish, yovsirash yoki xavfsirash ular o‘rtasidagi muvozanatni buzadi hamda fuqarolik urushlarini keltirib chiqarish holati kuchayadi. Ayniqsa, “Sekulyarizmni dogmatik, bir yoqlama yoki bugungi kun atamasi bilan ifodalaganda “ekstremistik” tushunish diniy e’tiqodning umuminsoniy qadriyat ekanligini ham inkor etishga olib boradi” [5, – B. 69.]. Bu esa, o‘z navbatida, diniy-siyosiy yoki ijtimoiy-siyosiy nizolarni keltirib chiqaradi.

Xulosa va takliflar. Umuman olganda, Yaqin Sharq mamlakatlarida diniylik va dunyoviylik tendensiyalarining namoyon bo‘lish shakllarini tahlil etib, aytish mumkinki, Yaqin Sharq mamlakatlaridagi diniylik va dunyoviylik o‘rtasidagi noaniq vaqti-vaqti bilan o‘zgarib turadigan muvozanat, Yaqin Sharq mamlakatlarida ko‘plab siyosiy va ijtimoiy masalalarni keltirib chiqaradi. Har bir musulmon jamiyatda diniy omil jamiyatning qarorlar qabul qilishiga bevosita ta’sir qiladi, shuningdek, bu diniy ta’sirning kuchayishi ba’zan ijtimoiy barqarorlikka tahdid solishi mumkin. Sekulyarizatsiya jarayoni hamisha ham muvaffaqiyatli amalga oshirilmaydi. Shuning uchun,

Yaqin Sharq mamlakatlarida diniy va dunyoviylik o'rtasidagi muvozanatni topish oson emas va har doim jamiyatda yangilik va an'analar o'rtasidagi ziddiyatlar mavjud. Shunday qilib, bu hududdagi diniylik va dunyoviylik tendensiyalari o'rtasidagi murakkab aloqalar, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Каримов Ф.Э. Яқин Шарқ давлатларидаги этносиёсий жараёнларнинг минтақа хавфсизлигига таъсири: сиёсий фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD)... диссертацияси. – Тошкент: 2017.
2. Мавляутдинов И.С., Озтюрк Х. Ислам и глобализация / Вызовы религиозного экстремизма в глобализирующемся мире: коллективная монография. – Казань: Фолиант, 2017.
3. MENA Youth Lead Return To Religion. <https://www.arabbarometer.org/2023/03/mena-youth-lead-return-to-religion/> (Мурожаат санаси: 15.04.2024).
4. The sacred and the secular. <https://www.aljazeera.com/opinions/2011/5/9/the-sacred-and-the-secular> (Мурожаат санаси: 23.04.2024).
5. Бегматов А., Қодиров А., Дадабоева М. Миллий маънавият, секуляр сиёсат ва фуқаролик жамиятининг ривожланиши. – Тошкент: Akademiya, 2012.